

**O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Rahimova Zarnigor Abduqodir qizi

Guliston Shahar 3- umuman o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-Psixologiya fakulteti 4-kurs

talabasi

Makhamadjonov Jakhongir Zakirjan ugli

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-Psixologiya fakulteti 2-kurs

talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish dolzarbligi aks etgan. Shuningdek, tanqid, fikrlash va tanqidiy fikrlash tushunchalarining mohiyati yoritilgan hamda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish pedagogik muammo ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tanqid, fikrlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, tafakkur.

Jahonda Lifelong learning ta'lim dasturlari bo'yicha muataxassislarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muammolari pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb hisoblanadi. Dunyodagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan Career Services markazi tomonidan ish beruvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra ishtirokchilarning 74,8% qismi malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kreativlik va nostandart tafakkur tarzi bilan bog'liq sifatlarni belgilagan. Singapurdagi Nanyan texnologiya universiteti Biznes maktabida ham aynan

shunga o'xshash so'rovnoma natijasida 62,5% ish beruvchilar bitiruvchining kreativlik sifatlarini muhim sifatlar qatoridagi uchlikka kiritishgan.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, [1, 146] deb ta'kidlaydi. Bejiz, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab o'tilmagan.

Bugungi kunga qadar o'quvchi va talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari, uning tarkibiy qismi bo'lgan tanqidiy fikrlashni shakllantirish muammosi yuzasidan pedagogika fanida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mazkur muammoning yechimiga doir qarashlar J. G'. Yo'ldoshev, O. Roziqov, M. H. Mahmudov, V. I. Andriyanova, B.Adizov, R.Safarova, O'. Tolipov, SH.A.Abdullaeva; falsafa fanlari doktorlari: Q.Nazarov, Z.G'ofurov; psixologiya fanlari doktorlari: E.G'oziev, M. Davletshin, V. Karimova, R. Sunnatova; pedagogika fanlari nomzodlari: P.Musaev, U.Musaevlarning ishlarida bir qator nazariy-konseptual hamda amaliy yondashuvlar bayon qilingan.

Shu bilan bir qatorda, ko'plab xorij olimlarining tadqiqotlarida aynan shu masalalar o'z aksini topgan. T. Kudryavseva, YU.S.Stolyarov, YA.A. Ponomarev, V. Zankov, B.F. Lomov, V.V. Davidov, L.K.Markova, V.P Bespalko, B. Bershanskiy kabi olimlar ta'lim tizimida o'quvchilarning o'quv-anglash faoliyatini tashkil qilish, ularda fikrlash, tushunish va nazariy qobiliyatlarni rivojlantirish muammolarining yechimini topishga kognitiv ta'lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashganlar.

Ta'limda o'rganishning ijobiy asoslarini tashkil etishda shaxsiy faoliyat ko'rsatish muammolarining psixologik va pedagogik jihatlarini L.S.Rubinshteyn, A.I.Leontev, P.YA.Galperin, A.Matyushkin, I. A. Zimnyayalar tadqiq etishgan.

Ta'limda texnologik yondashuv, o'quv jarayonini loyihalash, ta'lim texnologiyasi samaradorligini aniqlash va baholash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish masalalari K. Klarin, M. Monaxov, V. Choshanov, N. N. Sunsov, A.Kern, G.Ayzenk, M.Mauerman ishlarida o'z aksini topgan. SHuningdek, ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning mohiyatini ochib berishga doir J. Dyui, D. Kluster, K. Meredis, D. Stil, Dj. Benks, A.S.Savenkolar tadqiqot ishlari olib borganlar. Biroq, o'quvchilarda mustaqil, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, tafakkur qilish imkoniyatlarini boyitish masalalari bir qadar tadqiq etilgan.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi F.O.Xodjiyeva tomonidan tadqiq etilgan.

Tanqidiy fikrlashining ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Yunon tilidan tarjimada tanqid so'zi izolyatsiya, ajralish degan ma'noni anglatadi. Tanqid (kritika (lot)-hukm qilish mahorati) inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. U xatolarni topish va muhokama qilishdan iboratdir.

Tanqid-nimaningdir yoki kimningdir kamchiliklarini baholash, nima yoki kimdir haqida salbiy fikr yuritishdir. O'zgalarni tanqid qilish qaralayotgan muammoga ularning munosabatini o'ziniki bilan mos kelishini istashdir. Bu esa odatda manmanlikka olib keladi. Boshqalar ham shu ruhda tarbiyalanganliklari uchun tanqidchining fikrlarini qabul qilishni istashmaydi. Demak, tanqid o'zgalarning axborot-energetik olamiga tajovuzdir.

O'zbek tilida tanqid tushunchasi boshqa ma'no kasb etdi va ko'p o'lchovli. Tanqid tushunchasi insonning barcha aqliy faoliyatini o'z ichiga oladi. Tanqidiy tafakkur bir nechta ma'nolarga ega. Ushbu tushunchalar fikrlashning

rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi.

Fikr inson tomonidan tug'diriladi va uning kuchi g'oyat katta. Fikr-energiyaning universal shakli. U yaratuvchi ham vayron qiluvchi ham bo'lishi mumkin. Fikr moddiy olamda moddiylashadi, ya'ni yuzaga chiqadi.

“Fikrlash”-biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o'ylamoqdan iborat bo'lgan psixologik jarayondir.

Eramizdan 400-300 yil oldin yashashgan fikrlash asoschilari Suqrot, Pluton va Aristotellardan quyidagi analiz, mulohaza yuritish va tanqiddan iborat analitik fikrlash sistemasi qolgan.

Hozirgi davrda analitik fikrlashni o'rganishning eng maqbul usullari-matematik, fizik masalalar, krossvordlar, rebuslarni yechish, ba'zi kompyuter o'yinlari bilan shug'ullanish, badiiy adabiyotlar o'qish, detektiv adabiyotlarni o'qiganda va detektiv filmlarini ko'rganda o'zini izquvar o'rniga qo'yib mulohazalar yuritish va xokazolardir.

Shuningdek Suqroti hakimdan tanqidiy fikrlash ham meros qolgan. U o'z mulohazalarida nima noto'g'riligini ko'rsatishga uringan. "Agar sho'rvaning ko'pigi olib tashlansa u toza bo'ladi" qabilida ish tutgan. Boshqacha aytganda barcha noto'g'rilar olib tashlansa to'g'ri, ya'ni haqiqat qoladi deb hisoblagan. Lekin ko'pik bilan birga yana allaqancha mahsulotlar tashlanayotganligiga e'tibor bermagan. Suqrot yangi g'oyani taklif qilishdan ko'ra nima "yomonligini" ko'rsatishni muhim deb bilgan.

Tanqidiy fikrlash narsalar va hodisalarni analiz qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar sistemasi bo'lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya'ni u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir.

Demak tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri bo'lsa-da, undan doimo foydalanish maqsadga muvofiq emas. Odam o'zini doimo to'g'ri deb hisoblamasligi kerak. Garchi bu rohat bag'ishlasa-da, u boshqa nuqtai nazarlarga e'tibor bermasligimizga olib keladi. Barcha qarorlarni qabul qilish uchun ham tanqidiy fikrlash zarur bo'lavermaydi. Ko'pincha

tanqidiy fikrlashdan ko'ra ijodiy fikrlash elementlarini qo'llagan maqul. Tanqidiy fikrlash intellektual faoliyatning asosiy qismidir, bu talabalarni argumentni tanib olishni yoki rivojlantirishni, ushbu dalilni tasdiqlovchi dalillardan foydalanishni, asosli xulosalar chiqarishni va muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanishni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash intellektual faoliyatning asosiy qismidir, bu talabalarni argumentni tanib olishni yoki rivojlantirishni, ushbu dalilni tasdiqlovchi dalillardan foydalanishni, asosli xulosalar chiqarishni va muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanishni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta'lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish; o'quv jarayonini ta'lim oluvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- ta'lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 146.
2. Ahmedov, A. Y., & Egamberdiyev, O. A. (2022). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS*, 1(5), 503-508.
3. Akhmatkhonovna, G. K., & Jamshid, T. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1053-1058.
4. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 154-160.
5. Begmurzayevich, D. B. (2022). O ‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *Ijodkor o ‘qituvchi*, 2(20), 52-59.
6. Egamberdiev, O., & Tojimamatov, J. (2022). PRINCIPLE OF RELATIONSHIP OF PHYSICAL EDUCATION WITH PERSONAL PRACTICE. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(6), 111-112.
7. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 87-89).

8. Iqboljon O'g'li, T. J. (2021). The Role of Physical Culture and Sports in the Spiritual Education of the Individual. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 280-282.
9. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.
10. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
11. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
12. Ахматхоновна, Ф. Х. (2022). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎҚИТУВЧИ ИЖТИМОЙ ИНТЕЛЛЕКТИНИНГ АҲАМИЯТИ.
13. Ахматхоновна, Ф. Х. (2022). ШАХС ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 89-95.
14. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
15. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В

ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.

16. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ
ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ
АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.

17. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА.

In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND
PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).

18. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ
ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).

19. Джалалов, Б. Б. (2020). ЁШЛАР ИЖТИМОЙЙ ФАОЛЛИГИНИ
ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК
АСОСЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).

20. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK О ‘QITUVCHILARNING
INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA
SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).

21. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016).
Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.

22. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ
РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).